



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI | 12 |
| Qarajanova Gulnoza Tolliyevna | |
| MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 19 |
| Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li | |
| QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH..... | 23 |
| Mirzataev Salamat Muratbaevich | |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI | 28 |
| Tureev Azizbek Abatovich | |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII..... | 32 |
| Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich | |
| TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI..... | 37 |
| Kurbanova Mehriniso Nematjanovna | |
| Sharipov Kongratbay Avezimbetovich | |
| THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS..... | 43 |
| Ravshanova Mohinur O'rolovna | |
| O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI..... | 51 |
| Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi | |
| TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI..... | 55 |
| Qaraev Anvar Botirovich | |
| THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY | 61 |
| Toirova Mubina | |
| IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI..... | 66 |
| Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi | |
| KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI..... | 73 |
| Rizayeva Nilufar Oblakulovna | |
| SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI | 79 |
| Abdulla Mavlonov | |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH..... | 82 |
| Komekova Gulzira Sharbaevna | |



| | |
|---|-----|
| МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ | 87 |
| Бекматов Акмал Курбонмахматович | |
| SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI | 93 |
| Azamatova G. I. | |
| O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI | 98 |
| Omonov Olim Murodullayevich | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI | 104 |
| Isxakova Sarvar Ayubovna | |
| Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna | |
| ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН) | 109 |
| Жанайдарова Камола Абаевна | |
| CHANGE MANAGEMENT DURING QUALITY ASSURANCE REFORM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS | 115 |
| Urinov Bobur Nasilloevich | |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI | 123 |
| Nuraliyeva Komila Sanaqulovna | |
| XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI | 130 |
| Utkirova Jasmina Jasur qizi | |
| XORIJIIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI | 135 |
| Salimova Zaxro Sobirjon qizi | |
| QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI | 141 |
| Xakimov D.R. | |
| ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ | 151 |
| Эркинбаева Камила Жавлонбековна | |
| TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY RESURLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH | 156 |
| Tangirkulov Bekzod Boxadirovich | |
| HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODEL VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI | 162 |
| Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna | |
| SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI | 171 |
| Jalalova Dildora Jamolovna | |
| КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ | 174 |
| Лана Цхай | |
| UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI | 181 |
| G'oziyeva Moxira Rustam qizi | |
| TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 189 |
| Yuldashova Yoqutoy | |



| | |
|--|-----|
| KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI..... | 193 |
| Karimova Aziza Maxomadrizoyevna Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li | |
| SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI | 199 |
| Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi | |
| ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ..... | 204 |
| Ташпулатов Дильмурад Рустамович | |
| ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT | 210 |
| Xolmurodova Durdona Otamurod qizi | |
| ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ | 218 |
| Саттарова Зухра Илхомовна | |
| KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI | 224 |
| Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li | |
| HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI..... | 229 |
| Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li | |
| TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL..... | 235 |
| Hasan Ibragimov Mannonov Shahzod Toshmurod Qulmanov | |
| MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI..... | 242 |
| Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi | |
| IJTIMOYIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI..... | 247 |
| Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich Ibragimov Qayumbek Ikromovich | |
| TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI..... | 254 |
| Muminov Bekzod Polvonovich | |



TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI

Muminov Bekzod Polvonovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishning ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va uni mamlakatimizda keng joriy etish hamda tijorat banklari aktivlarining daromadlilik, likvidlik va risklilik darajasiga ko'ra turkumlanishi o'rganilgan. Xalqaro bank aktivlari samaradorligini ta'minlashdagi turli nomutanosibliklar xalqaro miqyosda banklar tarmog'ining inqirozga yuz tutishiga hamda xalqaro iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi ko'rib chiqilgan. Zamonaviy bank tizimi rivojlanishida aktivlarni oqilona joylashtirish va ularning samaradorligini oshirish tijorat banklari moliyaviy barqarorligi, likvidlik darajasi va raqobatbardoshligining muhim mezonidir. Shu bois, bank kengashlari tomonidan aktivlarni joylashtirish strategiyasini ishlab chiqish, uning ijrosini nazorat qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank aktivlari, xalqaro banklar, likvidlik va risklilik darajasi, korporativ boshqaruv tizimi, risk monitoringi, yuqori samaradorlik, aktivlarni boshqarish.

Abstract. This article studies the advanced foreign experience of improving the efficiency of commercial bank assets and its widespread implementation in our country, as well as the classification of commercial bank assets according to the level of profitability, liquidity and risk. It is considered that various imbalances in ensuring the efficiency of international banking assets lead to the crisis of the banking sector on an international scale and a decrease in international economic growth indicators. In the development of the modern banking system, rational allocation of assets and increasing their efficiency are important criteria for the financial stability, liquidity level and competitiveness of commercial banks. Therefore, the issues of developing an asset allocation strategy by bank councils, monitoring its implementation and improving decision-making processes are studied.

Keywords: commercial banks, bank assets, international banks, liquidity and risk level, corporate governance system, risk monitoring, high efficiency, asset management.

Аннотация. В данной статье изучены передовой зарубежный опыт повышения эффективности активов коммерческих банков и возможности его широкого внедрения в нашей стране, а также классификация активов коммерческих банков по уровню доходности, ликвидности и рискованности. Рассмотрено, что различные дисбалансы в обеспечении эффективности международных банковских активов могут приводить к кризисным явлениям в банковском секторе на международном уровне и снижению показателей международного экономического роста. В развитии современной банковской системы рациональное размещение активов и повышение их эффективности являются важными критериями финансовой устойчивости, уровня ликвидности и конкурентоспособности коммерческих банков. В связи с этим изучены вопросы разработки советами банков стратегии размещения активов, контроля за её исполнением и совершенствования процессов принятия решений.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские активы, международные банки, уровень ликвидности и рискованности, система корпоративного управления, риск-мониторинг, высокая эффективность, управление активами.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan beqarorlik va tarkibiy o'zgarishlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida tijorat banklari likvidligining zaiflashuviga, yirik miqdorda aktivlar bilan ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqishiga, to'lov balanslari holatining yomonlashuviga va pirovard natijada, milliy iqtisodiyotlarning retsessiya holatiga tushib qolishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining aktivlari samaradorligini samarali boshqarish, ularning bank tizimini rivojlantirishdagi rolini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Xalqaro bank aktivlari samaradorligini ta'minlashdagi turli nomutanosibliklar xalqaro miqyosda bank tizimida barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishiga hamda xalqaro iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Jumladan, 2007–2008-yillarda AQShda ipoteka kreditlari bo'yicha muammoli kreditlarning 700 mlrd. dollardan oshib ketganligi, ipoteka kreditlari riskini baholash va bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rilmaganligi oqibatida yirik moliyaviy tuzilmalar va kompaniyalarning likvidligi pasaydi, natijada ularning xalqaro fond bozorlaridagi qimmatli qog'ozlarining qiymati pasayib ketdi.

Bu holat, o'z navbatida, bir qator rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmining pasayishiga, aholining ishsizlik darajasining oshishiga hamda ayrim banklar faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga



kelishiga sabab bo'ldi. Bunday sharoitda xalqaro miqyosda bank tizimining amal qilish mexanizmlarini tadqiq etish, xalqaro bank aktivlarining shakllanish va taqsimlanish tamoyillarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu tartiblar bank kengashining vakolatlarini kengaytirish, aktivlarni joylashtirish va kredit siyosati bo'yicha muntazam hisobotlarni ko'rib chiqish, shuningdek, risklarni nazorat qilish tizimini mustahkamlashni ko'zda tutadi. Bunday yondashuv rivojlangan mamlakatlar tajribasiga hamohangdir. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada korporativ boshqaruv "anglo-sakson modeli" asosida shakllanib, unda aksiyalar keng miqyosda tarqatilgan bo'lib, boshqaruvda menejrlarning boshqaruvdagi roli nisbatan yuqori hisoblanadi (managerial capitalism). Aksincha, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya va boshqa kontinental Yevropa mamlakatlarida "kontinental model" amal qiladi, bunda bank yoki sanoat guruhlar kapital ulushining asosiy qismini nazorat qiladi, natijada boshqaruvda aksiyadorlar konsentratsiyasi yuqori bo'ladi.

Germaniyada korporativ boshqaruv tizimining ikki darajali modeli — nazoratchi kengash (Aufsichtsrat) va boshqaruv kengashi (Vorstand) — bank faoliyatining strategik va operatsion yo'nalishlarini ajratish orqali samarali risk monitoringini ta'minlaydi. Yaponiyada esa "keiretsu" tizimi asosida banklar sanoat korxonalarini bilan moliyaviy-kapital integratsiyasini amalga oshirib, uzoq muddatli investitsion strategiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "Corporate Governance Principles for Banks" tamoyillariga muvofiq, samarali korporativ boshqaruv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bank kengashi va menejmenti o'rtasida mas'uliyatli rollarni ajratish;
- mustaqil direktorlar institutini joriy etish;
- ichki va tashqi audit tizimini kuchaytirish;
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish;
- riskka asoslangan qaror qabul qilish tizimini shakllantirish.

Bu tamoyillarni milliy amaliyotga tatbiq etish tijorat banklari aktivlarini samarali joylashtirish strategiyasini shakllantirishda nazariy va amaliy poydevor yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro darajadagi izlanishlarni o'rganish asosida ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari aktivlarining samaradorligini oshirish, mazkur jarayonda moliyaviy rejalashtirish, umuman, bank aktivlarini boshqarish va rivojlantirish aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotida muhim hisoblanadi.

Naturalistik nazariyaning asoschilari — ingliz iqtisodchilari A. Smit va D. Rikardo, shuningdek, fransuz olimlari J. B. Sey, F. Bastiya hamda amerikalik iqtisodchi D. Mak-Kullox — kreditni iqtisodiyotdagi mavjud moddiy boyliklarning qayta taqsimlanish vositasi sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, ssuda kapitali real ishlab chiqarish kapitalining bir ko'rinishi bo'lib, iqtisodiyotda moddiy resurslarning qayta aylanishini ta'minlaydi.

Kreditning kapital yaratuvchilik nazariyasini ingliz iqtisodchisi Jon Lo ilgari surgan bo'lib, u kreditlar iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratishi, ya'ni kredit yangi qiymat yaratuvchi iqtisodiy kuch ekanligini ta'kidlagan. Ushbu nazariyani keyinchalik I. Shumpeter, A. Gan, J. Keyns, R. Xoutri, M. Fridmen kabi olimlar rivojlantirganlar.

Shumpeter yondashuvida kredit innovatsiyalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan "ijodiy vayronkorlik" mexanizmi sifatida qaraladi. Fridmen esa kreditning o'zi emas, balki pul massasi va foiz stavkalari iqtisodiyotdagi asosiy boshqaruv vositasi ekanini ta'kidlaydi.

1950-yillarda R. Lukas tomonidan "ratsional taxminlar" konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan bu nazariya bank aktivlarini joylashtirishda mijozlarning kelgusidagi daromad oqimlarini prognozlashni asosiy mezon sifatida belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, aktivlar samaradorligini oshirish uchun banklar mijozlarning naqd pul oqimlari (cash flow), to'lov qobiliyati, barqaror daromad manbalari va foyda marjasini inobatga olgan holda kredit ajratishi lozim. O'zbekiston bank tizimi uchun bu yondashuv mijoz asosidagi kredit riskini kamaytirish va aktivlardan olinadigan sof foydani (ROA) barqarorlashtirish vositasi sifatida amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ularni O'zbekiston bank tizimi sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash hamda aktivlarni daromadlilik, likvidlik va risklilik darajasiga ko'ra baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish hamda monografik o'rganish usullari qo'llanildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali AQSh, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar bank tizimida aktivlarni boshqarish, kredit axboroti almashinuvi, depozit bazasini shakllantirish hamda CAMELS kabi reyting tizimlaridan foydalanish amaliyoti o'rganildi. Iqtisodiy-statistik tahlil usuli yordamida bank aktivlari, kredit portfeli, lizing operatsiyalari, depozitlar va banklarning likvidlik ko'rsatkichlari



bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda tijorat banklari aktivlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar — kapital yetarliligi, likvidlik, risklarni boshqarish, kredit portfeli sifati va korporativ boshqaruv mexanizmlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini milliy bank tizimi sharoitiga moslashtirish, tijorat banklari aktivlarini samarali joylashtirish va ularning moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank aktivlarini boshqarish bankning daromadlilik, likvidlik va xavfsizlik maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan tizimli jarayondir. Aktivlarni boshqarish nazariyasi XX asrning o'rtalarida, ayniqsa, 1960-yillarda shakllanib, foiz stavkalari o'zgaruvchanligi va kredit riskining kuchayishi sharoitida rivojlandi.

Uning moliyaviy mazmuni aktivlarni joylashtirish orqali yuqori rentabellikni ta'minlash bilan bir qatorda, tavakkalchilikni chegaralashga yo'naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari aktivlarini boshqarishning uch asosiy maqsadi ajratiladi:

- yuqori samaradorlikka erishish (daromad va xarajat nisbatini optimallashtirish);
- yetarli darajada likvidlikni saqlash;
- bankning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash.

Bank faoliyatida daromad keltiruvchi aktivlar tarkibiga kredit portfeli, investitsiyalar, lizing operatsiyalari va foizli moliyaviy joylashtirishlar kiradi. Shu bilan birga, bu aktivlar daromad keltirmaydigan aktivlar (naqd pullar, vakillik hisobvaraqlari, rezervlar) bilan uyg'un muvozanatda bo'lishi kerak. Chunki likvid aktivlar bankning to'lovga qobiliyatini ta'minlaydi, daromadli aktivlar esa foyda manbai sifatida xizmat qiladi. Mazkur muvozanatni saqlab turish bank menejmentining asosiy metodologik vazifasidir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar bank tizimlarida aktivlar boshqaruvi "likvidlik–rentabellik–xavf" uchburchagi asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlarda kreditorlar kredit byurolari tarmoqlari yordamida almashadigan axborotlar hajmi ancha yirik hisoblanadi. Masalan, AQSh, Belgiya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Germaniyada taqdim etilayotgan hisobotlar miqdori aholi sonidan oshadi. Kredit axboroti almashinuvi bo'yicha faoliyatning muhimligi shu darajadagi, uning rivojlanishini rag'batlantirish dunyoning ko'pgina mamlakatlarida davlat organlarining doimiy nazoratida turadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davlat organiga o'zining axborot bazasi mavjud bo'lishi nihoyatda zarurligini ko'rsatdi. Sababi tashqi auditorlik tashkilotlarining xulosalari, reyting agentliklarining baholari, kredit byurolarining axboroti muayyan biznes subyektining haqiqiy ahvolini doim ham to'g'ri aks ettiravermasligi ayon bo'ldi.

Shuning uchun kredit axborotining davlat reyestri timsolida ishtirok etuvchi davlat muvofiqlashtiruvchi organining moliya-kredit muassasalaridagi vaziyat to'g'risida tezkor va haqqoniy axborotga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Kredit byurolarining ko'pligiga qaramay, axborot xizmatlarini taqdim etish sohasida kapitalning jamlanish darajasi ancha yuqori. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya va Yaponiyada axborotning barcha majmuasini taqdim etuvchi ikki-uchta yirik kredit byurosi ustunlik mavqeiga ega. Braziliya, Finlyandiya va Irlandiya kabi davlatlarda esa faqat bitta shunday universal kredit byurosi faoliyat ko'rsatadi. Boshqalari alohida turdagi axborotlarni taqdim etgan holda, asosan, bozorning kichik bo'shliqlarini egallaydi. Bu yirik kompaniya o'z ma'lumotlar bazasida maksimal hajmdagi ishonchli va to'liq axborotni jamlashi, shuningdek, o'z faoliyatida eng ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalana olishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Avstriya, Argentina, Belgiya, Ispaniya singari davlatlarda kredit axboroti almashinuvining ikki bosqichli tizimi amal qiladi. Ya'ni kerakli kredit axborotini kredit byurolari ham, kredit axboroti davlat reyestri ham taqdim eta oladi. Meksikada kredit byurolari xususiy bo'lib, Markaziy bank va davlat ularning ustav kapitalida ishtirok etmaydi, qarzdorlar to'g'risidagi barcha kredit axborotini ulardan haq evaziga oladi.

Germaniyada barcha kredit institutlari mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni banklar xususiy mijozlarining kredit tarixi hisobini yuritish uchun tashkil etilgan "Kredit operatsiyalari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha jamiyat"ga jo'natadi. Axborotni yig'ishga yondashuv ham turlichadir. Masalan, Braziliyada kredit byurolari faqat salbiy axborotni taqdim etadi (faoliyat ko'rsatayotgan barcha kredit byurolarining 32 foizi), boshqalari ham salbiy, ham ijobiy axborotni taqdim etadi.

Hozirgi paytda 70 dan ortiq mamlakatda kredit axboroti davlat reyestrlari ishlamoqda, lekin 40 ta davlatda davlat reyestri faoliyat ko'rsatib, ularda kredit byurolari mavjud emas. Masalan, Xitoy va Fransiyada faqatgina kredit axboroti davlat reyestrlari tuzilgan. Binobarin, Fransiyada qonunchilik Fransiya Markaziy bankining bo'linmalaridan biri bo'lgan va davlat nazorati ostida turgan Markaziy xatarlar byurosiga axborotni majburiy tarzda taqdim etishni nazarda tutadi. Buyuk Britaniyada ikkita xususiy kredit agentligi bo'lib, ular qarzdorlarning kredit tarixi bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish bilan shug'ullanadi.



Ushbu tizimda kapitalning yetarliligi Bazel qo'mitasining kapital yetarliligiga nisbatan belgilangan talablariga asoslangan. Shu sababli kapitalning yetarliligi ikki koeffitsient — umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsienti va asosiy kapitalning yetarlilik koeffitsienti orqali baholanadi. Mazkur reyting tizimida kapital tijorat banklarining to'lovga qobiliyati, aktivlarning samaradorligi va likvidligini ta'minlashning ishonchli vositasi hisoblanadi.

1-jadval
Xorijiy banklarda aktivlar samaradorligini baholash tizimlari³


| Mamlakat | Nazorat organi | Tizimlar | Joriy etilgan yil | Tizim turi |
|----------------------|---------------------------------|---|--|---|
| Fransiya | Fransiya bank komissiyasi | ORAP- (<i>Organisation et Renforcement de l'Action Préventive</i>) | 1997 | Distansiyali reyting tizimi (xatarning oldini olish harakatlarini tashkil etish va mustahkamlash) |
| | | SAABA- (<i>Système d'Aide à l'Analyse Bancaire</i>) | 1998 | Tezkor harakat tizimi |
| | | SIGAL (<i>Système d'information de l'Inspection Générale</i>) | 2001 | Tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash axborot tizimi |
| Germaniya | Germaniya Federal idorasi | BAKIS (<i>BAKred Information System</i>) | 1997 | Ayrim bank guruhlarini tahlil qilish orqali xavfni baholash tizimi |
| AQSh | Federal rezerv tizimi | CAMELS | 1980 | Tarmoq reyting tizimi |
| | | SEER rating | 1995 | Tezkor harakat tizimi (reyting pasayishi) |
| | | SEER risk rank | 1995 | Tezkor harakat tizimi (bank muvaffaqiyatsizligi prognozi) |
| AQSh | OCC | BOPEC (<i>Bank subsidiaries covered by the bank deposit insurance fund</i>) | 1979 | Bank aktivlarini baholash uchun tarmoq reyting tizimi |
| | | Canary Project | 2000 | Xatarlarni monitoring qilish va erta ogohlantirish vositasi |
| | | FDIC | SCOR (<i>Statistical Camels Off-site Rating</i>) | 1995 |
| Italiya | Italiya banki | GMS (<i>Growth Monitoring System</i>) | 1990 | Tezkor harakat tizimi (bank muvaffaqiyatsizligi prognozi) |
| | | PATROL | 1993 | Masofaviy reyting tizimi |
| Buyuk Britaniya | Moliyaviy xizmatlar boshqarmasi | Cox Proportional Hazard Rate | 2000 | Tezkor harakat tizimi |
| Chexiya Respublikasi | Chexiya milliy banki | RATE | 1998 | Bank xatarlarini baholash kompleks tizimi |
| | | CAMELS | 1998 | Tarmoq reyting tizimi |
| Niderlandiya | Niderlandiya milliy banki | Logit model | 2001 | Tezkor harakat tizimi (bank muvaffaqiyatsizligi) |
| | | RAST (<i>Risk Analysis Support Tool</i>) | 1999 | Bank xatarlarini baholash kompleks tizimi |
| Ruminiya | Ruminiya milliy banki | CAAMPLS | 1999 | Tarmoq reyting tizimi |
| | | Early Warning System of CAAMPL Rating Downgrade Events | 2007 | Tezkor harakat tizimi |
| | | Early Warning System on Currency Crises | 2006 | Tezkor harakat tizimi |
| Avstriya | Avstriya milliy banki | CAMEL | 1995 | Tarmoq reyting tizimi |
| | | Logit and Cox hazard rate models | 2004 | Voqea boshlanishidan oldin ehtimollik va vaqtni baholaydigan erta ogohlantirish tizimi |
| | | Value at Risk | 2005 | Banklarning zararlarini qoplash qobiliyatini baholash tizimli modeli |
| | | SRM (<i>Systemic risk monitor</i>) | 2006 | Stress testlarini o'tkazish orqali tizimli barqarorlikni nazorat qilish tizimi |

3 O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining konsepsiyasi. <https://uzbekistan2035.uz>



Shu sababli CAMELS reyting tizimiga asoslangan inspeksion tekshirish jarayonida tijorat banklarining aktivlarida yuz bergan va berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilishga, sabablarini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Tekshirish natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Yuqoridagi muhim vazifalardan kelib chiqib, fikrimizcha, yuqoridagi modellarg'arbiy davlatlardagi korxonalarni o'rganish natijasida ishlab chiqilgani bois ularni O'zbekiston sharoitida tatbiq etishda iqtisodiyotimizning o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratish lozim.




2-rasm. AQSh iqtisodiyotidagi tijorat va sanoat kreditlarining umumiy miqdori⁴

Tahlillar doirasida kreditlarning 2,2 foiz o'sish ko'rsatkichi nisbatan past ko'rsatkich sifatida baholanadi. Ammo biznes kreditlari bo'yicha bu ko'rsatkich 46,1 mlrd. dollar. Bu 2012-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda yiliga 100–200 milliard dollarga yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, bu o'sish umuman tiklangan bank sektori bilan tarixiy jihatdan o'xshashdir. Bu biznesni kreditlashdagi barqarorlik AQSh banklarining umumiy barqarorligi uchun kuchli ko'rsatkichdir.

AQSh banklari aktivlari portfelini tahlil qilishga yordam beradigan ikkinchi iqtisodiy ko'rsatkich banklarning barcha kreditlari va lizinglarining umumiy miqdoridir. 2-rasmda keltirilgan ma'lumotlar AQSh iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatadigan har bir tijorat bankining barcha kreditlari va lizinglarining qiymati hisoblanadi. Bunga o'quv kreditlari, biznes kreditlari, ipotekalar, avtoulovlar, avtomobil lizingi kiradi. Faqat so'nggi o'n ikki oyda AQSh banklarida kredit va lizingga 352,1 milliard dollar qo'shildi. Bu Misrning yalpi ichki mahsulotidan ko'proqdir (2-rasm).

4 <https://fred.stlouisfed.org> rasmiy internet sayti ma'lumotlari.




3-rasm. Banklardagi barcha kreditlar va lizinglarining umumiy miqdori⁵

Keltirilgan jadvallarda jami aktivlar bo'yicha dunyodagi eng yirik banklar ro'yxati keltirilgan. Olti yil mobaynida Xitoyning Sanoat va tijorat banki (ICBC — Industrial and Commercial Bank of China) dunyodagi eng yirik bank bo'lib, uning aktivlari 26 087 trillion yuanni (4 trillion AQSh dollari) tashkil qilmoqda. Bundan tashqari, u dunyodagi eng yirik bank bo'lib, omonatlar, kreditlar, mijozlar va ishchilar soni bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Hozirgi kunda dunyodagi eng yirik banklardan to'rttasi Xitoy moliya institutlari hisoblanadi.

Birinchi o'ntalikka kirgan banklarning jami aktivlari 28 trln dollarni tashkil qilmoqda. "Banks around the World" xabariga ko'ra, dunyoda eng ko'p aktivlarga ega 100 ta bank tarkibiga 20 ta Xitoy banki, 10 ta AQSh banki, 6 ta Buyuk Britaniya banki, 6 ta Fransiya banki, 9 ta Yaponiya banki, 6 ta Germaniya banki, 5 ta Kanada banki, 5 ta Janubiy Koreya banki, 5 ta Braziliya banki, 4 ta Avstraliya banki, 3 ta Italiya banki, 3 ta Ispaniya banki, 3 ta Gollandiya banki, 2 ta Singapur banki va 2 ta Shveysariya banki kirgan.

Tijorat banklarining to'lovga qobiliyatini va ularning balansining likvidligini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy me'yorlar bo'lib, kapitalning yetarlilik koeffitsienti, joriy likvidlik koeffitsienti va bozor kapitallashuvi bo'yicha belgilangan me'yorlar hisoblanadi. Chunki uchala me'yorning bajarilishi bankning to'lovga qobiliyatini saqlash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo tijorat banklari tomonidan ushbu iqtisodiy me'yorga rioya etish amaliyotining tahlili mazkur me'yorga rioya etish borasida sezilarli nomutanosibliklar kuzatilmaganini ko'rsatdi.

5 <https://fred.stlouisfed.org> rasmiy internet sayti ma'lumotlari.



4-rasm. Dunyodagi eng yirik banklar aktivlari 2024-yil dekabr holatiga ko'ra⁶ (milliard AQSh dollarida)

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish bank tizimining moliyaviy barqarorligi, likvidligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi bank aktivlarini boshqarishda daromadlilik, likvidlik va risk o'rtasidagi muvozanatni saqlash asosiy tamoyillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Yevropa mamlakatlari amaliyotida aktivlarni joylashtirish strategiyasi kredit portfeli sifati, depozit bazasining

6 <https://www.relbanks.com> rasmiy internet sayti ma'lumotlari



barqarorligi, risklarni baholash tizimi hamda korporativ boshqaruv mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda shakllantiriladi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, tijorat banklari aktivlarining samaradorligi faqat kreditlar hajmining oshishi bilan emas, balki ularning qaytuvchanligi, daromadlilik darajasi, riskka mos baholanishi va likvidlik talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Shu bois banklar tomonidan aktiv operatsiyalarni kengaytirishda kredit oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, naqd pul oqimlarini baholash, kredit tarixi va to'lov intizomi bo'yicha ishonchli ma'lumotlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kredit byurolari, kredit axboroti davlat reyestrlari va masofaviy reyting tizimlarining rivojlanganligi bank aktivlari sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday tizimlar kredit risklarini oldindan aniqlash, muammoli aktivlar ulushini kamaytirish va banklarning qaror qabul qilish jarayonini yanada asosli tashkil etish imkonini beradi. Shu jihatdan O'zbekiston bank tizimida ham kredit axboroti almashinuvi mexanizmlarini takomillashtirish, kredit portfeli sifatini doimiy monitoring qilish va riskka asoslangan boshqaruv yondashuvlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, tijorat banklarida aktivlarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda "likvidlik–rentabellik–risk" muvozanatini asosiy mezon sifatida belgilash lozim. Ikkinchidan, CAMELS va boshqa xalqaro baholash tizimlaridan foydalanish orqali bank aktivlari sifati, kapital yetariligi va likvidlik darajasini kompleks baholash amaliyotini kuchaytirish zarur. Uchinchidan, bank kengashlari va menejmentining aktivlarni joylashtirish, kredit siyosati va risklarni nazorat qilish bo'yicha mas'uliyatini oshirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, ilg'or xorijiy tajribani milliy bank tizimiga joriy etishda O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy xususiyatlari, moliya bozorining rivojlanish darajasi va bank mijozlarining moliyaviy faolligi inobatga olinishi lozim.

Umuman olganda, tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarish bo'yicha xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy amaliyotga moslashtirish bank tizimining barqarorligini oshirish, aktivlar sifatini yaxshilash, kredit risklarini kamaytirish hamda iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. Corporate Governance Principles for Banks. – Basel: Bank for International Settlements, 2015.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: International Regulatory Framework for Banks. – Basel: Bank for International Settlements, 2017.
3. European Central Bank. Financial Stability Review. – Frankfurt am Main: European Central Bank, November 2022.
4. Federal Financial Institutions Examination Council. Uniform Financial Institutions Rating System. // Federal Register. – 1997. – Vol. 62, No. 3.
5. Federal Deposit Insurance Corporation. Risk Management Manual of Examination Policies. Section 1.1: Basic Examination Concepts and Guidelines. – Washington, D.C.: FDIC, 2026.
6. Board of Governors of the Federal Reserve System. H.8 Assets and Liabilities of Commercial Banks in the United States. – Washington, D.C.: Federal Reserve System, 2026.
7. Board of Governors of the Federal Reserve System. Commercial and Industrial Loans, All Commercial Banks [BUSLOANS]. – Federal Reserve Bank of St. Louis, FRED Economic Data, 2026.
8. Board of Governors of the Federal Reserve System. Loans and Leases in Bank Credit, All Commercial Banks [TOTLL]. – Federal Reserve Bank of St. Louis, FRED Economic Data, 2026.
9. World Bank. General Principles for Credit Reporting. – Washington, D.C.: The World Bank Group, 2011.
10. World Bank Group. Credit Reporting Knowledge Guide 2019. – Washington, D.C.: The World Bank Group, 2019.
11. S&P Global Market Intelligence. The World's Largest Banks by Assets, 2025. – New York: S&P Global Market Intelligence, 2025.
12. The Banker. Top 1000 World Banks 2024: Higher Interest Rates Lead to Record Profits. – London: Financial Times Group, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>